

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKSIDA FIKR VA SO'Z ERKINLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Tifliyeva Gulhayo

Toshkent davlat yuridika universiteti magistranti

E-mail: tifliyevag@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida fikr va so'z erkinligini ta'minlash bo'yicha mavjud huquqiy asoslar, ularni takomillashtirish zarurati va bu yo'nalishdagi islohotlar chuqur tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, fikr va so'z erkinligini cheklovchi amaliy holatlar, senzura va o'z-o'zini senzura qilish holatlarining sabablari, jurnalist va blogerlarning huquqiy himoyasi bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Yevropa mamlakatlarining konstitutsiyaviy yondashuvlari bilan qiyosiy tahlil olib borilib, O'zbekistonda ushbu erkinlikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: fikr erkinligi, so'z erkinligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, OAV erkinligi, senzura, huquqiy islohotlar, xalqaro standartlar, jurnalistlar huquqi.

**ISSUES OF IMPROVING FREEDOM OF THOUGHT AND
EXPRESSION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Tifliyeva Gulhayo

Master's student of Tashkent State University of Law

E-mail: tifliyevag@gmail.com

Abstract: this article provides an in-depth analysis of the existing legal framework for ensuring freedom of thought and expression in the Republic of Uzbekistan, the need for their improvement, and reforms in this area. The article also highlights practical situations that restrict freedom of thought and expression,

the causes of censorship and self-censorship, and problems related to the legal protection of journalists and bloggers. A comparative analysis is conducted with the constitutional approaches of European countries, and specific proposals are put forward to improve this freedom in Uzbekistan based on international standards.

Keywords: *freedom of thought, freedom of expression, Constitution of the Republic of Uzbekistan, freedom of the media, censorship, legal reforms, international standards, rights of journalists.*

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СВОБОДЫ МЫСЛИ И СЛОВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Тифлиева Гулхаё

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: tifliyevag@gmail.com

Аннотация: *в статье представлен глубокий анализ существующей правовой базы обеспечения свободы мысли и выражения мнения в Республике Узбекистан, необходимость её совершенствования и реформ в этой сфере. Также рассматриваются практические ситуации, ограничивающие свободу мысли и выражения мнения, причины цензуры и самоцензуры, а также проблемы, связанные с правовой защитой журналистов и блогеров. Проводится сравнительный анализ с конституционными подходами европейских стран и предлагаются конкретные предложения по совершенствованию этой свободы в Узбекистане на основе международных стандартов.*

Ключевые слова: *свобода мысли, свобода выражения мнения, Конституция Республики Узбекистан, свобода СМИ, цензура, правовые реформы, международные стандарты, права журналистов.*

Kirish (Introduction)

Fikr va soʻz erkinligi demokratik davlatchilik asoslaridan biri hisoblanadi. Soʻnggi yillarda dunyo davlatlarining milliy qonunchilik asoslarida va xalqaro standartlarda ham fikr va soʻz erkinligi huquqini mustahkamlashga qaratilgan koʻplab ijobiy harakatlarning guvohi boʻlmoqdamiz. Soʻz erkinligi faqat davlat tuzumida ahamiyatli boʻlib qolmay, jamiyatning har sohasi rivojining negizi sifatida eʼtirof etiladi. Bu xoh siyosat, xoh huquq, xoh madaniyat yoxud maʼrifat boʻlsin, ifoda erkinligi bularning barchasiga ijobiy taʼsir — oʻsish va rivojlanish olib keladi. Shuningdek, hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda fikr va soʻz erkinligi huquqini taʼminlashda ommaviy axborot vositalari (keyingi oʻrinlarda OAV) hamda ularda faoliyat yurituvchi jurnalistlar, media xodimlar faoliyati ham ahamiyatlidir. Shu sababli oxirgi yillarda mamlakatimizda aynan fikr va soʻz erkinligini mustahkamlashga qaratilgan qonuniy-normativ hujjatlar qabul qilishda “toʻrtinchi hokimiyat” sifatida tan olinadigan OAV va jurnalist, bloggerlar faoliyati ham hisobga olinmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlab oʻtganidek: “Maʼlumki, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish Yangi Oʻzbekistonni barpo etish jarayonida biz uchun doimo ustuvor vazifa boʻlib kelmoqda. Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini taʼminlash boʻyicha muhim qoida va tamoyillar mustahkamlab qoʻyilgani, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotgani bu fikrni

yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda soʻz erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga erishish yoʻlida keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, oʻrni va nufuzini yanada kuchaytirmoqda”[1]. Ushbu fikrlar fikr va soʻz erkinligining Oʻzbekiston Respublikasi hududida amal qilishida OAV va jurnalistlar erkinligining qanchalik ahamiyatli ekanligini anglatadi. Ayniqsa, soʻnggi yillarda soʻz erkinligini taʼminlash maqsadida ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning koʻlami va ularning tarkibi ham bu dolzarb masala ekanligini isbotlamoqda. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF—60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022—2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi [4]hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 27-iyunida PQ — 294-son Qarori bilan qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalarini qoʻllab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish toʻgʻrisida”gi huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir. Shuningdek, 2023-yilda yangilangan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi orqali fikr va soʻz erkinligi huquqi konstitutsiyaviy huquq normasi sifatida tan olinib, mustahkamlandi. Shu kabi qonunchilikdagi ijobiy islohotlarga qaramay, fikr va soʻz erkinligi huquqi taʼminlanishida amaliy jihatdan baʼzi tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Fikr va soʻz erkinligi huquqini taʼminlashda raqamli platformalar, jurnalistlar va blogerlar faoliyati hamda davlat bilan fuqarolar oʻrtasidagi shaffoflikka doir muammolar huquqiy jihatdan chuqur tahlil etilishi, nazariy va amaliy yechimlar ishlab chiqilishiga ehtiyoj sezilmoqda.

Metodlar (Methods)

Ushbu tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Normativ-huquqiy tahlil: O‘zbekiston Respublikasining fikr va so‘z erkinligini himoya qilishga oid qonunchilik bazasi, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa me‘yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

2. Qiyosiy metod: O‘zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlar bilan taqqoslandi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (OSCE), “Article 19”, “Human Rights Watch” hamda “Committee to Protect Journalists” (CPJ) kabi tashkilotlar tomonidan berilgan tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasiga moslashtirildi.

3. Ilmiy tahlil: Ilmiy maqolalar, xalqaro konferensiyalar materiallari va amaliyotdagi tajribalar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussion)

O‘zbekiston Respublikasida fikr va so‘z erkinligi huquqini ta‘minlovchi ko‘plab qonun hujjatlari va samarali mexanizmlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, haligacha bu borada muammolar batamom yo‘q bo‘lgan deya olmaymiz. Ammo 2023-yilda yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [2] fikr va so‘z erkinligi huquqini konstitutsiyaviy huquq sifatida mamlakatimizda mustahkamladi. Bundan tashqari, qonunchilik bazamizda mavjud bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “Ommaviy axborot vositalari

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kabilar ham fikr va so'z erkinligi huquqini kafolatlashda ahamiyatlidir [8].

Quyida fikr va so'z erkinligi huquqini ta'minlashda ishlab chiqilgan mexanizmlarni yanada takomillashtirish masalalari, mavjud kamchiliklarga qanday yechimlar berish, xalqaro tajribalarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqlashtirish, chet el olimlarining nazariyalariga mos tushadigan nazariyalarni ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. So'z erkinligi huquqi konstitutsiyaviy kafolatlarga ega ekanligi uning mavqeyi yuqoriligidan dalolatdir. Ammo buning o'zi fikr va so'z erkinligini raqamlashgan davrda ham ta'minlash va himoyalashga yetarli emas, ya'ni internet tarmoqlarida fikr va so'z erkinligi ta'mini bo'yicha alohida qonun ishlab chiqish masalasi dolzarbdir va imkon qadar tezkor qabul qilinishi lozim.

"Axborot kodeksi" qonun loyihasi haqida so'z borsa, ushbu qonun loyihasi, dastlab, 2022-yil dekabrda jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan va faollar tomonidan e'tirozlarga sabab bo'lgan edi [3]. Ko'plab e'tirozlar blogerlar va OAV faoliyatidagi keskin cheklovlar sababli bo'lgani haqida ma'lumotga egamiz. Hali hanuz ushbu qonun loyihasi ustida ishlanyapti, bunda mas'ullar har tomonlama puxta o'ylangan va ayniqsa, fikr va so'z erkinligi huquqiga lozim darajadan ortiq cheklovlar qo'yishdan tiyilishlari tavsiya etilgan.

Bundan tashqari, ushbu kodeks 8 ta qonunning unifikatsiyasidan yuzaga kelishini inobatga oladigan bo'lsak, internetda faoliyat yurituvchi jurnalistlar va blogerlar huquqlari himoyasi bo'yicha alohida qonunchilik ishlab chiqilishi tavsiya

etiladi. Negaki, ro'yxati ma'lum qilingan 8 ta hujjatning hech birida internet olamida jurnalistlar va bloggerlar huquqlari raqamlashgan zamon hisobidan kelib chiqib to'liq mustahkamlanmagani bilan bir qatorda, ularga tegishli holatlar bo'yicha qat'iy jazo choralari ko'rish belgilangan. Bu esa fikr va so'z erkinligi huquqidan eng ko'p foydalanuvchilar — jurnalist va bloggerlarning jazo choralaridan qo'rqishlari natijasida o'z-o'ziga senzura qo'yishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Fikr va so'z erkinligini himoya qilishda mustaqil regulyatorlar va media institutlarining ham o'rni katta. Ya'ni fikr erkinligini ta'minlashda nafaqat konstitutsiyaviy kafolatlar, balki institutsiyaviy darajadagi mustaqil regulyatsiya vositalarining ahamiyati ham yuqori. Bu borada bir nechta xalqaro tashkilotlar tavsiyalari bilan ham tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (OSCE), "Article 19", "Human Rights Watch" hamda "Committee to Protect Journalists" (CPJ) kabi tashkilotlar bir nechta muhim tavsiyalarni bergan:

— OAV faoliyatining nazorati mustaqil regulyator organlarga o'tkazilishi kerak va bunday organlar davlatga bo'ysunmaydigan bo'lishi, ijtimoiy manfaatlarni va axborot erkinligini himoyalovchi jamoatchilik tarkibi bilan tuzilgan bo'lishi kerak;

— har bir jurnalist, blogger va media xodimlari o'z faoliyatini axloqiy va kasbiy normalarga asoslangan holda olib borishi lozim. Ularning faoliyati regulyatorlar tomonidan jazolovchi emas, yo'naltiruvchi sifatida baholanishi lozim [7].

“O‘zbekiton Respublikasida shunday mustaqil regulyator organlar mavjudmi va ular qaysilar?”, degan savol tug‘iladi. Albatta, O‘zbekiston Respublikasida Ombudsman instituti, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA), Jurnalistlar ijodiy uyushmasi kabi tuzilmalar mavjud bo‘lib, quyidagi jihatlari sababli fikr va so‘z erkinligi himoyasida cheklovlari bo‘lishi mumkin:

- davlat bilan bevosita bog‘langanlik ;
- huquqiy tomondan mustaqillikka ega emaslik;
- jamoatchilik ishtirokining sustligi;
- axborot erkinligini himoya qilishdan ko‘ra ko‘proq uni nazorat qilishga moyillikning mavjudligi.

O‘zbekistonda bunday organlarning fikr va so‘z erkinligini himoya qilishdagi samaradorligini oshirish uchun esa bir nechta tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Axborot erkinligini himoy qilishda AOKA va Ombudsman vakolatlarini kengaytirish;
2. Mustaqil faoliyat olib boruvchi jurnalistlar va blogerlar uchun muvofiqlashtiruvchi kengashlar tuzish;
3. Yuqorida sanalgan regulyatorlar faoliyatida oddiy aholi qatlami, fuqarolik jamiyati hamda NNTlar ishtirokini kengaytirish va kuchaytirish.

Shuningdek, Yevropa Inson huquqlari sudida (ECHR) qo‘llaniladigan “uch bosqichli test” (Triple Test) modelini O‘zbekiston qonunchiligida ham yaratish tavsiya etiladi.

“Uch bosqichli test” modeliga ko‘ra quyidagi uchta shart asosida fikr va so‘z erkinligini cheklovchi doira belgilanadi:

1. Qonuniylik (Legality) sharti cheklovlarning qonunga muvofiqligini tekshiradi;
2. Qonuniy maqsad (Legitimate Aim) sharti orqali cheklovning ijtimoiy maqsadga xizmat qilishi aniqlanadi;
3. Zaruriyat va proporsionallik (Necessity and Proportionality) sharti eng muhim shartlardan bo‘lib, cheklovning demokratik jamiyatga muvofiq darajada ekanligi tekshiriladi.

Ayni shu nuqtada ba’zi olimlar ilgari suruvchi “majburiyatga asoslangan” yondashuv (duty-based approach) ham nazariy asoslarni o‘rganishda muhimdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, erkin fikr bildirishda insonlarda faqat “bu mening huquqim” degan fikr bilan emas, balki “bu huquqdan foydalanganimda jamiyat uchun foydali bo‘ladimi yoki zararli” kabi savollar orqali holatning cheklangan yoki cheklanmaganligini aniqlash mumkin. Bunda mas’uliyat faqat insonlarga yuklatilib qolmay, institutsional mas’uliyat ham e’tiborga olinadi. Masalan, Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi qaror qabul qilayotganda fikr va so‘z erkinligiga nafaqat huquq sifatida, balki demokratik jamiyat asosi deb ham baho beradi. Ya’ni davlat faqat cheklovchi vazifasida emas. U himoyachi va imkon beruvchi subyekt sifatida gavdalanadi.

Martin Redishning “Avtonomiya nazariyasi”ga ko‘ra fikr erkinligi shaxsiy o‘zlikni anglash va shaxsiy rivojlanish huquqi sifatida ahamiyatlidir [5]. Agar O‘zbekistonda ham ushbu nazariya asosida fikr erkinligi shaxsiy rivojlanish huquqi sifatida tan olinsa, fuqarolarda ham ushbu huquq kafolatini ta’minlashga

intilish holatlari kuzatiladi. Shuningdek, ushbu nazariya erkin fikr bildirishdan qoʻrqish, va fuqarolarning oʻz-oʻzlarini senzura qilish holatlarini kamaytirishga yordam bergan boʻlar edi.

Jak Balkin “Demokratik madaniyat” nazariyasi orqali esa soʻz erkinligi huquqi deganda koʻz oldimizga faqat siyosatdagi soʻz erkinligi kelmasligi kerakligi haqida fikr bildirib, onlayn platformalarda davlat, platforma egalari va foydalanuvchilar orasidagi birlik muhim ekanligini ham keltirib oʻtgan [6]. Bu nazariya qoʻllangan taqdirda Oʻzbekistonda ijodiy faoliyatdagi senzuraning soddalashtirilishi va ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirgan foydalanuvchilarni asossiz bloklashga yoʻl qoʻyilmasligi holatlari kuzatilishi hamda mustahkamlanishi kutiladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi madaniyat erkinligi huquqini taʼminlashda, ushbu huquqning axborot huquqi tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev, <https://president.uz/oz/lists/view/7346>.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: Adolat, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
3. <https://kun.uz/news/2022/12/15/ozbekiston-axborot-kodeksi-loyihasi-elon-qilindi>.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi — <https://lex.uz/docs/-5841063#-5843875>.
5. Redish M. H. The Value of Free Speech // University of Pennsylvania Law Review. — 1982. — Vol. 130, No. 3.
6. Balkin J. M. Digital Speech and Democratic Culture: A Theory of Freedom of Expression for the Information Society // NYU Law Review. — 2004. — Vol. 79, No. 1.
7. ARTICLE 19: Uzbekistan Report. — URL: <https://www.article19.org/wp-content/uploads/2022/12/Uzbekistan-report-Nov-2022.pdf>.
8. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, -T.: davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.